

2026-yil uchun budget dasturlarida (maqsadli indikatorlarida) belgilangan ko‘rsatkichlarga o‘z vaqtida va sifatli erishish maqsadida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy va boshqa xavflar ro‘yxati va ularni barvaqt bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (II chorak yakuni bo‘yicha)

T/r	Moliyaviy va boshqa xavflar ro‘yxati	Moliyaviy va boshqa xavflarni bartaraf etish choralari	Kutilayotgan natija	Mas’ul boshqarma va tashkilotlar	Amalga oshirilgan ishlar
1.	Vazirlik tizimida bo‘lgan nasos stansiyalardagi eskirgan nasoslarni zamonaviy energiya tejamkorlarga almashtirish – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 4-ilovasiga asosan 156 ta zamonaviy energiya tejamkor nasoslarga almashtirish ishlari bajarilmaslik xavfining oldini olish.	1. Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan xarid qilinadigan 156 ta nasosni belgilangan tartibda elektron savdo platformalariga joylashtirish. 2. Elektron savdo platformalari orqali nasoslarni yetkazib beruvchi tashkilotlarni aniqlash va ular tomonidan nasoslarni tashkilotlarga yetkazib berilishini ta’minlash. 3. Xarid qilingan nasoslarni belgilangan tartibda o‘rnatish ishlarini amalga oshirish.	Tashkilotlar tomonidan yangi nasoslar o‘rnatilishi natijasida elektr energiyasi iqtisod qilinadi hamda ekin maydonlarga suv yetkazib berish sifati yaxshilanadi.	Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasining ishchi guruhi	Hududiy Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari hamda ABMK FB, QMK FB va Jizzax BNS boshqarmalari tomonidan ma’nan eskirgan nasoslarni yangilariga almashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, boshqarmalar tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida nasos qurilmalari elektron savdo platformasidan xarid qilinib, shundan 82 ta nasos belgilangan tartibda nasos stansiyalarga o‘rnatilgan.
2.	Vazirlik tizimida bo‘lgan nasos stansiyalardagi eskirgan elektrodvigatellarini yangi zamonaviy elektrodvigatellarga almashtirish – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 5-ilovasiga asosan 149 ta yangi zamonaviy elektrodvigatellarga almashtirish ishlari bajarilmaslik xavfining oldini olish.	1. Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan xarid qilinadigan 149 ta elektrodvigatellarni belgilangan tartibda elektron savdo platformalariga joylashtirish. 2. Elektron savdo platformalari orqali elektrodvigatellarni yetkazib beruvchi tashkilotlarni aniqlash va ular tomonidan elektrodvigatellarni tashkilotlarga yetkazib berilishini ta’minlash. 3. Xarid qilingan elektrodvigatellarni belgilangan tartibda o‘rnatish ishlarini amalga oshirish.	Tashkilotlar tomonidan yangi energotejamkor elektrodvigatellar o‘rnatilishi natijasida elektr energiyasi iqtisod qilinadi hamda ekin maydonlarga suv yetkazib berish sifati yaxshilanadi	Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasining ishchi guruhi	Hududiy Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari hamda ABMK FB, QMK FB va Jizzax BNS boshqarmalari tomonidan ma’nan eskirgan elektrodvigatellarni yangilariga almashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, boshqarmalar tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida elektrodvigatellar elektron savdo platformasidan xarid qilinib, 75 ta elektrodvigatel belgilangan tartibda nasos stansiyalarga o‘rnatilgan.
3.	Vazirlik tizimida bo‘lgan meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish tizimiga o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 11-ilovasiga asosan 2 952 ta meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish	1. Hududiy meliorativ ekspeditsiyalar hisobidagi meliorativ kuzatuv quduqlari uchun xarid qilinadigan Diver qurilmalarini texnik topshiriqqa muvofiqligini nazorat qilish. 2. Meliorativ kuzatuv quduqlarida o‘rnatilgan “Diver” qurilmalari	Meliorativ kuzatuv quduqlaridagi sizot suv satxi va u bilan bog‘liq batafsil ma’lumotlarni avtomatlashtiriladi hamda aniqlilik darajasi oshiriladi.	Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori bilan 2025–2028-yillarga mo‘ljallangan dasturiga ko‘ra 12 080 ta meliorativ kuzatuv qudug‘ida raqamli texnologiyalar asosida suv sarfi hisobi monitoringini yo‘lga qo‘yish topshirig‘i berilgan.

	tizimiga o'tkazish ishlari bajarilmaslik xavfining oldini olish.	faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash. 3. Xarid qilinadigan "Diver" kuzatuv qurilmalarining suv satxi va uning tarkibi bo'yicha kunlik uzatiladigan axborotni ma'lumotlar bazasiga to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilinishini nazorat qilish.			Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida, 2025–2028-yillarda meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish tizimiga o'tkazishning prognoz ko'rsatkichlari belgilangan. Jumladan, 2025-yil 2 850 dona reja ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib ushbu ko'rsatkichlarning bir qismi Meliorativ ekspeditsiyalarning yillik xarajatlar smetasida mablag' shakllantirish asosida bo'lsa, "Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish. 2-Faza" loyihasi doirasida Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi meliorativ ekspeditsiyalari uchun 1 503 dona zamonaviy "Diver" qurilmalarini xarid qilish ishlari amalga oshirildi hamda Melioratsiya obyektlarini qurish-rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash dasturlari doirasi hududlarda 1 411 dona qurilmalar o'rnatilgan. 2026-yil uchun 2 952 dona "Diver" qurilmalarini o'rnatish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda Andijon, Samarqand va Toshkent viloyatlarida (455 dona qurilma) Meliorativ ekspeditsiyalarning yillik xarajatlar smetasi hisobidan mablag'lar shakllantirildi. Shuningdek, Farg'ona viloyatida (277 dona qurilma) "Faza–2" loyihasida qo'shimcha "Diver" qurilmalari ajratilgan. Shuningdek 2 220 dona "Diver" qurilmalarini xarid qilish va o'rnatish ishlari Raqamlashtirish markazi orqali moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan
4.	Suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish maqsadida Respublika bo'ylab suv xo'jaligi obyektlarida 1895 dona raqamli qurilmalar soni – Prezident Administratsiyasining 2025-yil 30-avgustdagi 02-1418-sonli topshirig'ining 3-band 2-bosqichi	1. Hududiy suv xo'jaligi tashkilotlarida buyruq asosida ishchi guruh tarkibi shakllantirilib, mazkur buyruqqa asosan suv xo'jaligi obyektlaridagi gidropostlarda onlayn suv kuzatuv qurilmasi o'rnatish bo'yicha 1895 ta tumanlararo nuqtalarni aniqlash hamda dalolatnomalar rasmiylashtirish.	Suvga oid hisobotlarini inson omilisiz yuritish, ma'lumotlarning elektron bazasini shakllantirish hamda tahlillarni avtomatlashtirish	Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi, Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi	Uskunalarni o'rnatish ishlarining birinchi bosqichida ko'plab gidropostlarda texnik muammolar aniqlanganligi sababli, ikkinchi bosqichda uskunalarning texnik hujjatlarini ishlab chiqish ishlari "Suvloyiha" MChJga yuklatildi.

		2. Hududiy ishchi guruhi tomonidan mazkur topshiriqda belgilangan vazifalarni ijrosini o'z muddatlarda bajarish maqsadida xarid qilinadigan zamonaviy raqamli qurilmalarni ishlab chiqilgan texnik topshiriqnomalarini tasdiqlash hamda belgilangan tartibda davlat xaridi hujjatlarini ishlab chiqish shuningdek, o'rnatilgan tartibda xarid savdosini e'lon qilish. 3. Xarid qilingan raqamli qurilmalarni o'rnatish va ulardan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish.			Mazkur ishlarni samarali tashkil etish maqsadida vazirlikning 2026-yil 21-fevraldagi 05/28-282-sonli topshirig'i bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hamda barcha Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalariga MChJning hududiy bo'linmalari tomonidan joylarda o'rganish ishlarini olib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish yuzasidan tegishli topshiriqlar yuborildi. Hozirda 1 895 ta onlayn suv o'lchash qurilmasini o'rnatish rejalashtirilgan obyektlarda joyiga chiqqan holda dastlabki texnik o'rganish ishlari olib borilmoqda. O'rganishlar davomida qurilmalarni o'rnatish nuqtalari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi hamda obyektlarning texnik talablarga muvofiqligi baholanmoqda. Bugungi kunga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Samarqand, Xorazm, Namangan va Farg'ona viloyatlarida jami 601 ta qurilma o'rnatiladigan nuqta o'rganib chiqildi. O'rganishlar natijasida aniqlangan holatlardan kelib chiqib, 1 895 ta nuqtaga qurilmalarni o'rnatish bo'yicha loyiha konsepsiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilmoqda.
5.	Suv fondi yerlarini kadastr hujjatlarini o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun xarajatlarini amalga oshirilishida ta'rif narxlari asoslantirilmaganlik xavfi (<i>PQ-73-son, 30.12.2021-y).</i>	1. Suv fondi yerlarini kadastr hujjatlarini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun xarajatlarini amalga oshirilishida ta'rif narxlarini vakolatli davlat (<i>"O'zdavero'lyiha"</i> DILL, Respublika <i>"Aerogeodeziya"</i> markazi, Davlat kadastrlar palatasi) organlari orqali tegishli xulosalar olish. 2. Mazkur tadbirlarni amalga oshirilishida O'zbekiston	Suv xo'jaligi suv fondi yerlari belgilangan tartibda to'liq kadastr hujjatlari tayyorlanadi, davlat ro'yxatidan o'tkaziladi, suv xo'jaligi tashkilotlari balansiga qabul qilinadi va hisobi yuritiladi (<i>suv xo'jaligi obyektlari va ularning sohil bo'yi mintaqalari, daryolar, soylar va ko'llar</i>) hamda ortiqcha asossiz xarajatlarga	Vazirlikning Suv va gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish boshqarmasi, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-sonli qarori bilan irrigatsiya va melioratsiya obyektlari joylashgan yer uchastkalarini xatlovdan o'tkazish hamda 2027-yil yakuniga qadar yer uchastkalariga doimiy foydalanish huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash belgilangan. Mazkur topshiriq ijrosini to'laqonli ta'minlash maqsadida, Vazirlikning 2026-yil 22-yanvardagi 10-sonli

		Respublikasinung “Davlat xaridi to‘g‘risida”gi qonuni talablari asosida vakolatli davlat xaridlari portallari orqali elektron tarzda davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkillashtirish.	yo‘l qo‘yilmaydi, byudjet mablag‘lari tejamkorlik yo‘li bilan samarali sarflanadi.		buyrug‘i qabul qilingan bo‘lib, tizim tashkilotlariga suv fondi obyektlarini xatlovdan o‘tkazish, ularga nisbatan kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish va doimiy foydalanish huquqi asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarini tashkillashtirish yuzasidan aniq ko‘rsatmalar berilgan. Vazirlikning 2026-yil 7-apreldagi 01/17-634-sonli xati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga murojaat qilingan bo‘lib, 2026-yilda suv fondi yer maydonlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish xarajatlari uchun Respublika budjetidan ajratilgan 70 mlrd. so‘m mablag‘larini mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan tizim tashkilotlariga yo‘naltirish bo‘yicha amaliy yordam so‘ralgan va Vazirlar Mahkamasining 10-apreldagi 04/1-3281-sonli xati bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli ko‘rsatmalar berilgan. Bugungi kunda, byudjet mablag‘lari mahalliy byudjetga taqsimlandi va suv fondi yer maydonlarini xatlovdan o‘tkazish, kadastr pasportlarini rasmiylashtirish va doimiy foydalanish huquqi asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun shartnomalar rasmiylashtirish masalasi o‘rganilmoqda.
--	--	---	---	--	---